

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA SIYOSIY PARTIYALARNING HUQUQIY MAQOMI

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, f.f.d. O‘zbekiston, Chirchiq
ORCID: 0000-0001-6707-474X*

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalar faoliyati huquqiy jihatdan ta’minlanishi masalalari tahlil qilingan. Xalq hokimiyatchiligini shakllantirish jarayonida O‘zbekiston siyosiy partiyalarining ishtiroki kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy partiya, qonun, fuqarolik jamiyati, plyuralizm, huquqiy asos, siyosiy tizim, siyosiy faollik, parlament, ishonchsizlik votumi

ПРАВОВОЙ СТАТУС ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА

Бердикулов Сирожжон Насипкулович

*доктор философских наук, профессор Чирчикский государственный
педагогический университет, Чирчик, Узбекистан
ORCID: 0000-0001-6707-474X*

Аннотация. В статье проанализированы вопросы правового обеспечения деятельности политических партий, действующих в нашей стране в результате принятия новой Конституции Узбекистана. Освещены участие политических партий Узбекистана в процессе формирования народной власти.

Ключевые слова: политическая партия, закон, гражданское общество, плюрализм, правовая основа, политическая система, политическая активность, парламент, вотум недоверия

THE LEGAL STATUS OF POLITICAL PARTIES IN THE NEW CONSTITUTION OF UZBEKISTAN

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

*doctor of Philosophy, Professor Chirchik State Pedagogical University,
Chirchik, Uzbekistan
ORCID: 0000-0001-6707-474X*

Annotation. The article analyzes the issues of legal support for the activities of political parties operating in our country as a result of the adoption of the new

Constitution of Uzbekistan. Issues the participation of political parties in Uzbekistan in the process of forming people's power are highlighted.⁶

Keywords: political party, law, civil society, pluralism, legal framework, political system, political activism, parliament, vote of no confidence

Yangi O‘zbekistonda huquqiy davlatni, kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ko‘ppartiyaviylik tizimi, mustaqil, barqaror, faol va keng aholi qatlamlari (elektorat) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan siyosiy partiya hamda boshqa jamoat birlashmalarini shakllantirishga katta ahamiyat berildi.

Ko‘ppartiyaviy tizimga o‘tish, ushbu tizimni shakllantirish uchun zaruriy qonunchilik va siyosiy shart-sharoitlarni yaratish mamlakat taraqqiyotining birlamchi va dolzarb masalalardandir. Darhaqiqat, siyosiy partiyalarga keng huquqiy makon yaratib berish, ko‘ppartiyaviylik tizimi rivoji uchun huquqiy asoslarni ta‘minlash ularni jamiyatdagi rolini kuchaytirishning eng muhim omili hisoblanadi.

Xorijiy mamalakatlar (Argentina, Janubiy Koreya, Fransiya, Albaniya, Finlyandiya, Irlandiya va Shveytsariya) konstitutsiyalari tahlil qilindi, V.Meytus, VI.Meytuslarning siyosiy partiyalarning boshqaruvi, mafkurasi bilan bog‘liq fikrlari o‘rganildi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishi e‘tirof etildi. U fuqarolarning siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarga erkin birlashish huquqi asosida siyosiy partiyalarning faoliyat ko‘rsatishiga mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Jahondagi ko‘plab mamlakatlar asosiy qonunining siyosiy partiyalar bilan bog‘liq normalarida ularni ixtiyoriy tuzilishi va faoliyat yuritishi kafolatlangan. Chunonchi, Argentina Konstitutsiyasining 38-moddasida [1] siyosiy partiyalar demokratik tizimning asosiy instituti bo‘lib, ularning shakllanishi va faoliyati uchun Konstitutsiya erkin sharoit yaratib bergan. Janubiy Koreya Konstitutsiyasining 8-moddasida[2] davlat siyosiy partiyalarning ixtiyoriy tuzilishini kafolatlashi va ko‘ppartiyaviylik siyosiy tizimini himoya qilishi ko‘zda tutilgan. Fransiya Konstitutsiyasining 4-moddasi [3] ga muvofiq, siyosiy partiyalar fuqarolarning

saylov huquqini ifodalashga imkon beradi. Ko'pchilik mamlakatlar, masalan Albaniya, Finlyandiya, Irlandiya va Shveytsariya Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalar haqida aniq bir mulohaza bildirilmagan [7].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida siyosiy partiyalarga alohida e'tibor qaratilgan. Konstitutsiyaning 10, 39, 70, 71, 74, 118, 130, 136, 145-moddalarida bevosita siyosiy partiyalar bilan bog'liq masala qayd etilgan. Jumladan, 39-moddada «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas» [9, 17], deyilgan. Mazkur norma orqali mamlakatdagi siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishda ishtirok etib kelmoqda.

70-moddada «O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi» [9, 26-27].

***Siyosiy partiya** — davlat hokimiyati uchun kurash olib boruvchi, jamiyatni rivojlantirish mafkurasiga, boshqaruv tuzilmasi, elektorati va dasturiga ega bo'lgan fuqarolarning ixtiyoriy-siyosiy uyushmasidir.*

O'zbekiston Konstitutsiyasining 71-moddasi 1-qismida «Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining,

shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi» [9, 27].

Mazkur norma xalqaro huquq va standartlarga zid emas. Jumladan, Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 1308(2002)-sonli «Yevropa Kengashiga a’zo davlatlarda siyosiy partiyalar faoliyatini cheklash to‘g‘risida»gi Rezolyutsiyasining 11-bandida qayd etilganidek, *«siyosiy partiya faoliyatini cheklash yoki uni tarqatish choralari faqat istisno tariqasida, ya’ni partiya zo‘ravonlikka murojaat qilgan yoxud jamiyat tinchligi va mamlakatning demokratik konstitutsion tuzumiga tahdid solgan hollardagina qo‘llanilishi lozim»* [8, 53]. Bu haqida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ham o‘z fikrlarini quyidagicha bildirib o‘tgan: “... yangi Konstitutsiyamizda jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlash yoki cheklab qo‘yish faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yildi” [6, 430].

Konstitutsiyaning 74-moddasida: «Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar» [9, 28], – deb qayd etilgan. Haqiqatan ham, Konstitutsiyaning ushbu moddasida ta’kidlanganidek, siyosiy partiyalar hokimiyatning yuzaga kelishida asosiy rol ni bajaradi.

118-modda 1-qismida «O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansabdor shaxslari saylangandan va organlari shakllangandan so‘ng bir oy ichida yoki Bosh vazir lavozimidan ozod etilganidan keyin yoxud Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibi iste’foga chiqqanidan keyin bir oy ichida Qonunchilik palatasi ko‘rib chiqishi va ma’qullashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taqdim etiladi» [9, 57-58] deyilgan. Buning natijasida *birinchidan*, siyosiy

partiyalarning parlamentdagi tuzilmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. *Ikkinchidan*, nomzod yuzasidan har bir siyosiy partiya fraksiyasi orqali ularning elektorati manfaati nuqtai nazaridan fikri o'rganiladi. *Uchinchidan*, siyosiy partiyalar o'z dasturlarida elektorati manfaati ro'yobga chiqaradigan takliflarini maslahatlashuv jarayonida o'rta tashlash va muhokama qilish vakolati yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Siyosiy partiyalar, elektorati manfaatidan kelib chiqqan holda muayyan mafkurani targ'ib qiluvchi va unga tayanuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. «Siyosiy partiyalar, aynan, elektorati manfaatidan kelib chiqqan holda muayyan mafkurani targ'ib qiluvchi va unga tayanuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi» [4, 85]. Shu nuqtai nazardan, siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraksiyasi, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlar elektorati manfaatini ifoda etishi, uning uchun kurashishi kerak bo'ladi.

Konstitutsiyada Bosh vazirga nisbatan «ishonchsizlik votumi»ni bildirish masalasi ham kiritilgan. "Ishonchsizlik votumi tartibini amalga oshirish natijasida hukumat iste'foga chiqarilishi mumkin" [10, 56]. Buning natijasida boshqaruv va ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratining samarali tizimi yaratilishiga olib keladi. Siyosiy partiyalarning butun ijro tizimi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatilishi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, siyosiy partiyalar demokratiya mexanizmining markaziy instituti hisoblanib, markaz va mintaqalarda xalq hokimiyati aynan, ular vositasida qaror topadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikada huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ko'ppartiyaviylik tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ham, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi rivojini ta'minlaydigan huquqiy zamin yaratildi. Bu esa, hozirda respublikada jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalashda, inson huquq va erikliklarini to'la ro'yobga chiqarishda, fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Конституция Аргентины /<http://worldconstitutions.ru/?p=358> – 14.11.2024
2. Конституция Республики Корея (Южная Корея) /<http://worldconstitutions.ru/?p=358> – 14.11.2024
3. Конституция Франции /<http://worldconstitutions.ru/?p=138> – 20.08.2024
4. Мейтус В., Мейтус Вл. Политическая партия: стратегия и управление. – Киев: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.85.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – В. 80.
6. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – В. 430.
7. Положение о запрещении и роспуске политических партий и аналогичных мерах // <http://www.legislationline.org/ru/documents/action/popup/id/14192> - 17.03.25.
8. Руководящие принципы правового регулирования деятельности политических партий. – Варшава, 2011. – С. 53.
9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – В.17; – В.26-27; – В. 27; – В.28; – В. 57-58.
10. Сибилева А.Ю. Институт вотума недоверия и отказа в доверии правительству в РФ И ФРГ: сравнительно-правовой анализ // ОБРАЗОВАНИЕ И ПРАВО № 11/ 2023. – С. 56.
11. G‘affarova, G.G’. (2024). Kreativlik inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 8-son. 133-137-b
12. G‘affarova, G.G’. (2024). Kreativlik falsafasi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 6-son. 280-283-b
13. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685–690. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4698>
14. Gaffarova, G.G. (2025). The phenomenon of the «Virtue man» in the scientific heritage of Al-Farobi. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (146), 76-80.